ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 1.2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.02.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.02.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.02.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43, Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

ABDUJABBAROVA FERUZA ABDUNAZAROVNA
XI-XII asrlar turkiy til manbalari tilida
“Andisha” konseptining lingvomadaniy tahlili 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklor asarlari tilidagi ayrim eroniy
o‘zlashmalarning ma’no taraqqiyoti xususida 10

QULMURADOVA ODINAXON ABDUG‘AFFAR QIZI
Dialogik janrlar tadqiqi va rivojlanish bosqichlari 13

PIRMATOVA OZODA SAPARBOYEVNA
Sholichilik terminlari taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy omillar 18

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Ўзбек таржима тарихи: анъаналар,
ривожланиш ва маданий мослашув 21

RAJABOVA SADOQAT RASUL QIZI
Ishtixon tumani o‘zbeklashgan etnik arablar
shevasida uchrovchi ba’zi taom nomlari 24

QODIROVA MADINABONU MURODJON QIZI
O‘zbek tilidagi affiks grammatik shakllarning ingliz tiliga tarjimasi
lingvistik bazasini tuzish muammolari..... 29

IBRAGIMOVA NODIRA JAVLIYEVNA
To‘quvchilik atamalarining nomlanish tamoyillari 34

TEMIROVA GULZOR BAXRIDDIN QIZI
Siyosiy sharhning auditoriyaga manipulyativ ta’siri 36

NAMOZOVA MOHICHEHRA RUSTAMOVNA
O‘zbek va dunyo tilshunosligida takror 39

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

МУРТАЗОЕВ БАБАНАЗАР ХУРАМОВИЧ
АБДУЛЛАЕВА НИЛУФАР ИБРАГИМ ҚИЗИ
Юсуф Амирий “Даҳнома”си ҳақида 42

MUSTAFOQULOV RO‘ZIQUL BOYNAZAROVICH
Asqad Muxtor – nazm va nasrda mohir ijodkor 45

MAMATALIYEVA FOTIMA
Uch og‘a-ini arxetip paradigmasida “soxta qahramon” obrazi 47

AZIZOVA DILOBAR ABDULAZIZ QIZI
Manfaatli nikoh motivi variantlaridagi o‘zgarishlar
(“Sarob” romani misolida) 52

TA’LIM

BOYMAXMATOVA DILNOZA DO‘SMAT QIZI
Ona tili ta’limida o‘quvchilar nutqiy faoliyatining
o‘rganilishi yuzasidan ayrim mulohazalar 57

ABDUQODIROVA MADINA RUSTAMXO‘JA QIZI
Sharq mutafakkirlarining ta’lim va tarbiyaga oid ilk qarashlari 61

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2025; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM VA TARBIYAGA OID ILK QARASHLARI

Abduqodirova Madina Rustamxo‘ja qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti madina_abdukodirova@mail.ru

O‘tgan asrlarda yashab ijod qilgan ko‘plab sharq mutafakkir olimlari ta’lim-tarbiya masalalariga, o‘qituvchi shaxsiyatiga, uning layoqatiga oid o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Xususan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy asarlarini o‘rganish va tahlil qilish ta’lim tizimini, o‘qituvchilik faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilishda va ijobiy natijalarga erishishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri, “Ikkinchi muallim” nomi bilan shuhrat qozongan O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatini rivojlantirishga hissa qo‘shgan olim Abu Nasr Farobiy (873-930), o‘z asarlarida o‘qituvchi shaxsiyatiga, uning ta’lim berish layoqatiga, ta’lim va tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratadi. “Fozil odamlar shahri”[1], “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ixso al-ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi asarlarida Forobiyning tarbiyaviy qarashlari aks etganligini ko‘rishimiz mumkin[2]. “Fozil odamlar shahri” asarida inson bilim va balog‘atga faqat tarbiya orqali erishishi[3], “tarbiyali odamlar o‘z ruhlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq xafa bo‘lish, ortiqcha qayg‘urish kabi holatlarda mo‘tadillik doirasidan chiqmaslikka majbur qila olishlari kerak”[4] kabi pedagogga ham xos bo‘lgan xususiyatlar haqida fikr bildiradi. Farobiy ta’limotida baxt-saodatga erishuv va tug‘ma qobiliyatlarning rivojlanishi o‘z-o‘zidan bo‘lavermasligi, bu masalada bir muallimga muhtojlik borligi haqida fikr bildiradi[5]. Bundan tashqari, u ta’lim so‘z va o‘rgatish bilan bo‘lishi, tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan amalga oshishi, nazariy bilimlar ustozlar tomonidan o‘rgatilishi haqida ham fikrlar berib o‘tadi[6].

O‘rta Osiyoning buyuk fan arboblaridan bo‘lmish Abu Rayhon Beruniy (973-1048) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”[7], “Minerologiya”, “Hindiston”[8] kabi asarlarida pedagogika, bilimlarni egallash yo‘llari, ta’lim berishning turli xil usullari haqida so‘z yuritadi. Beruniy o‘quvchiga bilim berishda va uning ta’lim olishda qiziqishini oshirish uchun faqatgina bir mavzu doirasidagina cheklanib qolmasdan, turli fanlarga ham o‘tib ularni yanada qiziqtirish lozimligi haqida aytadi. Bundan maqsad beriladigan ma’lumotlarni yanada cho‘zish yoki ko‘paytirish emas balki, o‘quvchilarni zeriktirmaslik ekanligi, yanada ularni yangiliklar sari yetaklash maqsad ekanligi haqida aytadi. Beruniyning ta’limiy-axloqiy asari insonning aqliy, estetik, jismoniy kamol topishida va ta’lim-tarbiya jarayonlarini, xususan o‘qituvchi faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilishga amaliy yordam beradi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham boshqa qomusiy olimlar singari o‘z davrining turli fanlarini o‘rganadi, adabiyot, ta’lim-tarbiya kabi sohalarda ijod qilib, o‘zidan yirik asarlar meros qilib qoldiradi. U ta’lim-tarbiyaga oid asarlarida ham o‘qituvchi ham o‘quvchi uchun zaruriy ijtimoiy-falsafiy fikrlarni bayon qiladi. Ibn Sino har bir narsani (ilmni) bilish, u narsaning sabablarini o‘rganish orqali hosil bo‘lishi va kamolga yetishi haqida aytadi[9]. O‘qituvchi faoliyati uchun zarur bo‘lgan quyidagi mulohazalarini bildiradi:

Ta’lim bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, oson ilmlardan qiyinlari tomon borish;

O‘qish jarayonlarida faqat kitob bilan mashg‘ul qilmaslik;

Topshiriq va vazifalarning berishda bola yoshiga ahamiyat qaratish;

Bilim berish mobaynida o‘quvchilarning xohish va istaklari, qiziqishlarini hisobga olish;

[1] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004.
[2] Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. II qism. –Toshkent: 2005, – 81-b.
[3] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004, – 66-b.
[4] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004, – 81-b.
[5] Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –189-b.
[6] Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 189-b.
[7] Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. I жилд, -Тошкент: “Фан”, 1968.
[8] Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. II жилд, -Тошкент: “Фан”, 1968
[9] Абу Али ибн Сино. Тиббий угитлар. –Тошкент: Меҳнат, 1991. – 21 Б.

Ta’lim usullariga jismoniy mashqlarni ham qo‘shish;

lozimligi haqida hozirgi davr pedagogikasiga, o‘qituvchi o‘quv faoliyatini tashkil etish usullariga ham birdek doir o‘z fikrlarni bildiradi. O‘qituvchi shaxsiga esa bilim beruvchilari bilan munosabatlarida og‘irvazmin bo‘lishlari, ularning egallagan bilimlari qay darajada o‘zlashtirayotganliklariga ahamiyat qaratishlari, turli xil metod-usullardan dars jarayonlarida foydalanishlari, bilim berish jarayonida o‘quvchilarning xotirasi, shaxsiy qobiliyat va xususiyatlariga e’tibor qaratishlari, ulaning yosh va aqliy darajalariga e’tibor bergan holda darslarni tashkil etishlari kabi masalalarga haqida so‘z yuritadi. O‘qituvchilar darsga qiziqtirish uchun o‘tiladigan mavzuning faqat eng kerakligini ajratib olishlari, nutqlarini mavzu tushuntirish jarayonida qiziqarli va aniq tarzda ifodalashlari lozimligi haqida fikr bildiradi[1].

Yusuf Xos Hojib o‘z davrining yetuk mutafakkiri bo‘lib, o‘z asarlarida tarix, riyozot, adabiyot, falsafa, ta’lim-tarbiyaga oid ilmiy fikrlarini bayon qilgan. Uning ta‘lim-tarbiya tarixi va nazariyasiga bag‘ishlagan, ilmiy-axloqiy yo‘sinda bitilgan “Qutadg‘u-bilig” asari pedagogika sohasida, xususan o‘qituvchi faoliyati uchun zaruriy manba bo‘lib xizmat qiladi. Yusuf Xos Hojib bilimli, uquvli insonlarni ulug‘laydi, ularni buyuk sanaydi, bilimsizlarni esa tuban kimsalar sifatida sifatlaydi:

Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘,
Shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq.
Uquv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bilar,
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik olar.
Bilimsiz kishida kasallik bo‘lar,
Kasal emlanmasa yashamas, o‘lar!
Kel-u kasalingni tuzatgin, nodon.
Bilimsiz tubandir, bilimdon shodon[2].

Unsurul Maoliy Kaykovus (milodiy 1021-1022-yillarda tavallud topgan) ham Sharq an’analariga asoslangan pand-nasihat ruhida yozilgan “Qobusnoma” asarida insonni aqliy va axloqiy kamolotga yetkazish, oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish odob-axloq qoidalari, hunarli bo‘lishning afzalligi, suxandonlik, ilm talabi kabi ko‘plab masalalar haqida fikr bildiradi. Asarda har bir insonning hunarli bo‘lishi, bu orqali esa xalq orasida izzat-hurmat ko‘rishi, asl nomga hunar bilan erishish mumkinligi, hunarlarning ichida eng yaxshisi sifatida so‘z hunari ekanligi, insonlarning tilni faqat muloyim so‘z bilan o‘rgatmog‘i “behuda so‘zdan parxez qilmog‘i”, faqat to‘g‘ri so‘zlab, yaxshiliklarni darig‘ tutmasligi, har ishda mashvarat[3] qilmoq lozimligi, suhandon kishilar bilan suhbatda bo‘lib, ulardan o‘rganmoqlik suhandonlik bilan baland martabaga erishmoq kerakligi haqida aytadi[4]. Ilm yo‘lini tutganlarga parhezkor va qanoatli bo‘lishlarini, ilmni do‘st va bekorchi turmushni dushman bilishlarini, doim harakatchan va shod-hurram bo‘lishlarini, kech yotib erta turish, kitob va darsga muhabbatli bo‘lishdan, ilm yo‘lida zahmat kechishdan xafa bo‘lmaslikni, uni doim takrorlab yurib yodda saqlashni, doimo rostgo‘y bo‘lishni, oz so‘zlab, uzoqni ko‘zlash kabi nasihatlarini beradi[5].

Yana bir mutafakkir olimlarimizdan bo‘lgan Ahmad Yugnakiy ijtimoiy-siyosiy, diniy va axloqiy masalalarga bag‘ishlangan turkiy pandnoma adabiyotining noyob durdonasi bo‘lmish “Hibat ul-haqoyiq” asarini yozadi. Adib ilm-ma’rifat masalalariga alohida e’tibor berib, ilmli inson vafotidan so‘ng ham elda aziz bo‘lishi, aksincha, bilimsiz inson esa tirik bo‘lishiga qaramay, hech qanday qadri bo‘lmasligi haqida aytadi. Agar inson ilm olishga harakat qilsa, unga saodat yo‘li doimo ochiq bo‘ladi:

Bilimdan ochilar saodat yo‘li,
Bilim ol – saodat manziliga yet[6].

Asarda ilm olish oltinga, ilmsizlik esa iliksiz suyakka tenglashtiriladi, muloyimlik, mo‘minlik, tavoze’ eng yaxshi sifatlar sifatida ulug‘lanadi, kibr va takkabur esa kishini tubanlikka yetaklovchi illatlar sifatida qoralanadi:

Kibr to‘nin kiyib, ko‘krak kermagil,
Xalqqa tiling bilan ozor berma mo‘l.
Mo‘minlik nishoni tavoze’ erur,
Agar mo‘min ersang, tavoze’li bo‘l[7].

Jahon ilm-fani va madaniyatiga katta xissa qo‘shgan, ulug‘ marifatparvar olimlardan bir bo‘lmish Abul-Qosim Mahmud Az-Zamaxshariy (1075-1144) diniy ilmlar va ulamolar haqida, aruz, adabiyot, mantiq, lug‘atshunolsik, grammatika(nahv) kabilarga oid 50ga yaqin asarlar yozgan. “Rabiy ul-abror va nusus ul-axyor” (“Taqvodorlar bahori va fozillar axbori”) asarida esa adabiyot va tarix kabi ilmlarga oid ma’lumotlar berib o‘tadi. “Navobig‘ ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asarida “Murabbiy o‘qib tursagina murabbiy bo‘la oladi, agar o‘qishni to‘xtatib qo‘yar ekan, unda

[1] Hashimov K. Nishonova S. Pedagogika tarixi. II qism. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005, –92-b.

[2] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga eltuvchi bilim). –Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007, –15-b.

[3] Mashvarat – kengash, maslahat.

[4] Кайковус. Унсурулмаолий Қобуснома (Форсчадан Муҳаммад Ризо Огаҳий таржимаси). Нашрга тайёрловчи С.Долимов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Матбуотни қўллаб-қувватловчи Жамғарманинг «Истиқлол» ноширлик маркази Халқаро Шароф Рашидов жамғармаси, 1994, –26,35Б.

[5] Usha kitob. –102 Б.

[6] Yugnakiy Adib Ahmad. Hibat ul-haqoyiq. (She’riy tadbilni amalga oshiruvchi, so‘zboshi va izohlar muallifi: E.Ochilov). –Toshkent: “Sharq”, 2013. –17-b.

[7] Usha kitob, –26-b.

murabbiylik o‘ladi”[1] deya ilmning qanchalik kishilar hayotida o‘rni mavjud ekanligini ko‘rsatib beradi.

Sharq klassik adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslihiddin Sa’diy Sheroziy jahonga mashhur bo‘lgan “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarini yozadi. “Guliston” asari Sharq pedagogikasida, komil insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u didaktik hikoyalar va she’riy parchalardan iborat bo‘lib, har bir foydali o‘g‘it ma’lum bir hikoya bilan yanada ta’sirli va tushunarli qilib berilgan. Ustozning barchaga xoh oddiy fuqoro, xoh u podshoh farzandi bo‘lsin, bir xil tarbiya qilinishi, jazo barchaga barobar bo‘lishi, xattoki shoh bolasiga yanada ma’suliyatliroq bo‘lib, qattiqqo‘lroq bo‘lish lozimligi haqida aytadi:

Darvesh agar yuz noma’qul ish qilsa,
Biriga hapm do‘stlar qilmas e’tibor.
Ammo podshoh biror hazil so‘z desa
Iqlimdan iqlimga o‘tadi takror[2].

Bu parcha orqali ustoz shaxsiga qanday ma’suliyat yuklangani, farzandlar axloqini tarbiyalashga katta e’tibor berish lozimligi kabi fikrlarni uqish mumkin. Sa’diy o‘sha davrda mavjud bo‘lgan muallimlarga xos qattiqo‘llik bilan dars o‘tishni “Ota mehridan afzal jabri ustod” deb ta’riflaydi. Ustozlarning maktabda sodda va muloyim tabiatli bo‘lishini esa:

Agarda muallim bo‘lsa beozor,
Bolalar sinfni qilishar bozor[3].

deb hisoblaydi. Sa’diy qarashlari ilm ahllari, xususan, adabiyot o‘qituvchilarining faoliyatlarini tashkil qilishda ham dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi desak, xato bo‘lmas.

Sharq adabiyotining mumtoz shoiri, buyuk so‘fiy, shayx Abdurahmon Jomiy (1414-1492) tilshunoslik, adabiyot nazariyasiga oid asarlar yozib, Alisher Navoiy bilan adabiy hamkorlik natijasida XV asr Sharq poeziyasining qaytadan rivojlantirishga hissa qo‘shgan. Uning ta’lim-tarbiyaga Sharq pedagogikasiga oid fikrlari hozirgi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega. Allomaning mashhur “Silsilat-uz zahab” asarining “Sevimli aziz farzandga nasihat” bobida, “Bahoriston” asarlarida ilm olishning zaruriyati, ilm foydalari, bilimni yoshlikdan boshlab egallash va umrni behuda sarflamaslik haqidagi fikrlarini ilgari suradi.

Alloma “Haft avarang” tarkibidagi dostonlarda barkamol inson tarbiyasiga oid muhim falsafiy-axloqiy masalalar haqida bayon qiladi. Jomiy “Xiradnomayi Iskandariy” asarida axloqiy nasihatlar, hayotiy hikmatlarini keltirib, asarning boshlanish qismida keksa yoshga yetgan shoxga o‘g‘il ato qilinganini va shu o‘g‘li voyaga yetishi bilan, ilm olishning afzalligini bilgan holdan uni Arastu qoshiga yuborganini aytadi. Ya’ni ilm olish xoh shoh, xoh gado bo‘lsin afzal ekanligi, “bilimdan dunyoning ishi soz”ligi, har qanday ishga chechan bo‘lishi va zamon ustozsiz qolsa, vayron bo‘lishi haqidagi fikrlarni quyidagicha bildiradi:

“Ustod muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan qora bo‘lurdi jahon”[4]

Ustozning kishi kamolotida juda katta o‘rin tutishi ushbu asarda ochib berilgan bo‘lib, Iskandarning ilm olgandan so‘ng, bir olam hikmatga to‘lgani, har sohada o‘zib ketgani, “yer-u suv kitobini” oson o‘qib, barcha yaxshi-yomon ishlar unga ayon bo‘lganligining barchasida ustozning yordami va rahbarligi sabab ekanligini keltirib o‘tadi.

Insoniyatga o‘zidan ko‘plab ma’nolar xazinasi qoldirgan Mir Alisher Navoiy (1441-1501) o‘zining badiiy asarlarida ilm-fanning ahamiyati, komil insonni tarbiyalash, muallimlarga munosabat masalalariga katta e’tibor bergan. Ulug‘ mutafakkirning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolis unnafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayin”, “Chihil hadis” asarlarida yuqoridagi masalalarga oid qarashlari aks ettirilgan.

Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining “Mudarrislar zikrida” deb nomlangan qismida ustozlar haqida bayon qilgan bo‘lib, unda qanday muallim bo‘lish lozimligi, qanday noloyiq sifatlardan qochish lozimligi, qanday inson mukammal ustoz bo‘la olishi mumkinligi haqida so‘z yuritadi. O‘qituvchilik kasbini egallagan insonni “g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni ayturg‘a murtakib bo‘lmasa va xudnomolig‘ uchun dars havzasin tuzmasa va xudsitonlig‘ uchun takallum va g‘avg‘o ko‘rguzmasa” deydi. Ya’ni mudarris manmanlik qilib, mansab uchun dars bermasligi, o‘zini maqtab shovqin qilmasligi kerak deydi. Ustozlik kasbini egallagan insonlarning sodda va samimiy bo‘lishi, johillar kabi “sallasi katta va pechi uzun” bo‘lmasliklari, yaramas va nopok qiliqlardan, berilgan mansabdan foydalanib, harom narsani halol qilib ko‘rsatishdan, mumkin bo‘lmagan ishlarni qilishdan tiyilishlari lozimligi aytiladi. Mudarris pok qalbli, insofli va xushyor kishi bo‘lib, diniy va aniq bilimlarni o‘rgatishi, so‘zini Alloh kalomi va Rasulullo (s.a.v.)ning so‘zlari bilan boshlangan bo‘lishi lozimligi haqida ham fikrlar bildiradi[5].

Navoiy ilm olib, unga amal qilmagan kishilarni, yerni shudgor qilib, urug‘ sochmagan, yoki urug‘ ekib meva olmagan insonga qiyos qiladi:

[1] Xoliqov A. Pedagogik mahorat. –Toshkent: “Iqtisod-Moliya”,2011. –36-b.

[2] Саъдий. Гулистон (Форсчадан шеърларни Ғафур Ғулом, Шоислом Шомуҳамедов, насрий қисми Рустам Комилов таржимаси). -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. –145 Б.

[3] Саъдий. Гулистон (Форсчадан шеърларни Ғафур Ғулом, Шоислом Шомуҳамедов, насрий қисми Рустам Комилов таржимаси). -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. –146 Б.

[4] Жомий Абдураҳмон. Баҳористон. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –33 Б.

[5] Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 21-b.

“Ilm o‘qub qilmag‘on amal maqbul,
Dona sochib ko‘tarmadi mahsul” [1].

Olim bilimli insonlarning ilmini durga tenglashtiradi. Ya’ni ilmli insonlar johil kimsalar oldida tortishmasliklari, ularni mot qilish o‘z-o‘zini tahqirlash bilan barobar bo‘lishi haqida aytadi:

“Xorag‘a har kishikim, durri saminni urg‘ay,
Xirad anglarki, qayu biri birini sindurg‘ay”[2].

Asarning 18-faslida ham maktabda ustozlik qiluvchi insonlarga “maktabdor begunoh ma’sumlarg‘a jafokor. Aftol azobig‘a rog‘ib va alar ta’dibig‘a murtakib. Zoti bemadoro, dimog‘i po‘lod va ko‘ngli – xoro. G‘azabdin qoshida chin, gunahsizlar bila oyini xashu kin. Ko‘pragida tab’ g‘ilzati va tama’ illati padidor va aql qillatig‘a giriftor. Ammo tavsani atfol ta’bini jafo bila rom qilg‘uvchi va nohamvor sig‘or tavrig‘a siyosat bila andom berguvchi” sifatida ta’rif berib, ularning bir to‘da bolalarga ham ilm ham adab berishi naqadar mashaqqatli hamda o‘ta ma’suliyatli kasb ekanligini aytadi. Shoir shuning uchun ham ustozning bolalarda haqqi ko‘pligi, ular xoh shayx ul-islom, xoh qozi bo‘lsin, doim ularni izzat va hurmat qilish lozimligi haqida ham fikr bildiradi:

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmishs ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila[3].

Navoiy har bir yosh avlodni tarbiyalashda ustoz bergan ilm-fan va axloqning naqadar ahamiyatli ekani bilan birga, bu kasbga qadam qo‘ygan har bir ustozning naqadar ulug‘ ekanliklariga ham e’tibor qaratadi.

Yana bir mutafakkir olimlardan biri Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) bo‘lib, uning asarlari hozirda ham pedagogika, ta’lim, axloq va falsafa borasida qimmatli manba bo‘lib kelmoqda. “Futuvvatnomayi sultoniy” asarida “Shogird tushishning shart-sharoitlari” nomli bo‘limida shogirdlik binosi irodat ustiga qurilishi ya’ni barcha ustoz aytgan narsalarni jon qulog‘i bilan eshitishi, chin ko‘ngil bilan qabul qilishi va bor vujudi bilan amal qilishi haqida aytiladi. Xususan, shogirdlar faqatgina pok e’tiqod orqaligina ko‘zlagan niyatiga (murodiga), xizmati bilan esa matlubi-maqsadiga yetishishi mumkinligini ta’kidlaydi. Koshifiy shogirdlikning to‘rt ruknini: mard bo‘lib ishga kirishish, sidqidildan xizmat qilish, to‘g‘ri gapirib, to‘g‘ri a’mol qilish, ustoz nasihatiga quloq tutib amal qilish; va shogirdlikning sakkizta: ustozni ko‘rganda birinchi salom berish, ustozning oldida oz gapirish, boshni oldinga egib turish, ko‘zni har tomonga yugurtirmaslik, agar masala so‘ramoqchi bo‘lsa, avval ustozdan ruhsat so‘rash, ustoz javob aytganda e’tiroz bildirmaslik, ustoz oldida g‘iybat qilmaslik, o‘tirib-turishda hurmatni saqlash odoblarini sanab o‘tadi[4].

Sharq allomalarining inson tarbiyalashga oid qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida, xususan, o‘qituvchi faoliyatini tashkil etishda alohida ahamiyatga egadir. Yuqorida ko‘rib chiqilgan mutafakkir va olimlarning fikrlarini tahlil etish hozir zamon o‘qitish tizimini yanada yaxshilashga va samarali natijalarga erishishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rezyume. Maqolada sharq mutafakkir olimlarining ilk o‘qitishga oid fikrlari, qarashlari, o‘qituvchi kasbiga oid mulohazalari bayon qilingan. Xususan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy asarlari o‘rganilgan, ularning ta’limiy qarashlari tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: ta’lim, o‘qitish, sharq olimlari, o‘qituvchi layoqatiga oid ilk qarashlar.

Resume. The article describes the thoughts, views and opinions of the Eastern writers about early education, teaching and the teacher’s profession. In particular, the works of Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Yusuf Khos Hajib, Kaikovus, Ahmed Yugnaki, Saadi Shirozi, Alisher Navoi, Abdurahman Jami, Husayn Vaiz Koshifi were studied, and their educational views were analyzed.
Key words: education, teaching, oriental writers, first views about teacher’s competence.

Резюме. В статье излагаются мысли, взгляды и мнения восточных писателей о раннем образовании, преподавании и профессии учителя. В частности, были изучены труды Абу Насра Фараби, Абу Райхана Беруни, Абу Али ибн Сины, Юсуфа Хоса Хаджиба, Кайковуса, Ахмеда Югнаки, Саади Ширози, Алишера Навои, Абдурахмана Джами, Хусейна Ваиза Кошифи, а также проанализированы их образовательные взгляды.
Ключевые слова: образование, преподавание, восточные писатели, первые взгляды на компетентность учителя.

[1] Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 117-b.
[2] Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 119-b.
[3] Usha kitob, 26-B.
[4] Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний; Аҳлоқи муҳсиний. -Тошкент: “Ўзбекистон миллий енсиклопедияси”, 2011. 43-Б.